



**BOLALARDA DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ASARLAR  
VA ULARNI SAHNALASHTIRISH FAOLIYATI**

**Tojekarimova Moxiraxon Anvarjon qizi**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

moxiratojekarimova660@gmail.com

**Yo'ldasheva Ziyoda Shamsiddin qizi**

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

ziyodayoldasheva635@gmail.com

**Annotatsiya:** Yaratilayotgan ushbu maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarni Badiiy asarlarga bo'lgan muhabbatini paydo qilish, sahnalashtirish faoliyatini shakllantirish, aktyorlik mahoratini namoyish etish, ilm olishga targ'ib qilish.

**Kalit so'zlar:** Badiiy asar, sahna, aktyor, ilm, dunyoqarash, san'at, ruhiy faoliyat, qahramon, iste'dod, kitobxonlik, ta'sirli ifoda etish, mazmun, teatr binolari.

**KIRISH:**

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashda ularning dunyoqarashini shakllantirishda pedogoglarni hamda psixologlarni o'rni beqiyosdir. Shu bilan bir qatorda bolalarga aqliy bilimlarni rivojlantirish, jismoniy mashqlar bilan sog'lomlashtirish hamda badiiy asarlarni o'rgatmoq ham muhim omillardan biri sanaladi. Men ushbu maqolada Bolalarning dunyoqarashini shakllantirish va aqliy tarbiyasini rivojlantirishda Badiiy asarlarning o'rni beqiyosligini ko'rsatib o'tmoqchiman va aynan shu sohaga bog'lamoqchiman.

Prezidentimiz ham "Kuy, qo'shiqqa, san'atga muhabbat, musiqa madaniyati badiiy asarlarga muhabbat tuyg'usi bilan singdirish xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Bolalarni ilk yoshidanoq Kitobxonlikka targ'ib qilishimiz kerak. Ularga turli xil janrdagi Badiiy adabiyotlar to'plamini sotib olib, Badiiy asarlarga muhabbat uyg'otishimiz zarur. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni teran fikrlaydigan, har qanday vaziyatga to'g'ri yondashib, yechim topa oladigan va bilimlilik salohiyatini o'stiradigan qilib yetishtirmoqlikdir. Eng buyuk mutafakkirlar, olimlar yillab vaqtlarini tarflagan asarlarni 2-3 soatlik vaqt mobaynida o'zlashtirib Olim-u fozillar darajasiga ko'tarmoqdir.

**ASOSIY QISM:**

Sahna — 1) teatr binosining tomosha ko'rsatiladigan qismi. Birinchi teatr binolari, jumladan, Qad. Xitoy, Hindiston, Turon, Yunonistonda paydo bo'lib, asrlar davomida o'zgarib borgan. Hozirgi teatrlar, odatda, uch qavatli qutisimon shaklda quriladi. 1-qavati S. osti (tryum)dan iborat. O'rta qavati tomoshabinlarga yaqqol ko'rinib, asosiy voqealar shu yerda aks ettiriladi. Bu joy "sahna oynasi" deb yuritiladi. S. maydoni (plansheti), odatda, tomosha zalidan 0,8—1,1 m baland bo'ladi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Mazmunining g'oyaviy-ma'naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko'p bo'lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo'lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko'p bo'lishi.
5. Ifodali o'qishga mos bo'lishi.
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog'langan bo'lmo g'i zarur.

Badiiy asar o'zi nima degan savolga quyidagicha javob olishimiz mumkin.

BADIIY ASAR - adabiyot va san'atning voqea bo'lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi. Keng ma'noda badiiy asar san'atning u yoki bu turi (musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik, kino, teatr)ga mansub bo'lgan, insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati maxsuli sifatida yaralgan yangi mavjudlikni anglatadi, yani musiqa asari ham, haykal yoki rang-tasvir ham, film yoki spektakl ham bari badiiy asar sanaladi. Termin faol qo'llanuvchi tor manosida badiiy adabiyotga mansub bulgan "Adabiy badiiy asar" ni bildiradi. Shu o'rinda adabiyotga mansub etiluvchi asarlarning hammasi xam badiiy asar bo'lavermasligini, "Adabiy asar" bilan "Adabiy-badiiy asar" tushunchalari farqlanishini ta'kidlash lozim. Ya'ni "Adabiy asar" tushunchasining qamrov doirasi keng bo'lib, "Adabiy badiiy asar" uning tarkibiga kiradi hikoya, qissa, roman, memuar, sayohatnoma, esse janrlarida bitilgan asarlarning hammasi "Adabiy asar", biroq sanalganlar ichida hikoya, qissa va romanga nisbatangina "badiiy asar" deyish mumkin.



Badiiy adabiyot — inson faoliyatining mahsuli. Inson faoliyati esa keng va serqirradir. Inson faoliyati bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan "mehnat faoliyati", "ruhiy faoliyat", "estetik faoliyat" kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Boz ustiga, ruhiy faoliyatning o'zi "aqliy", "hissiy", "ruhoniy" faoliyat qirralarini namoyon etadi. Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir.

Badiiy asarlarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni bolalik davridanoq boshlashimiz kerak. Hozirgi svilizatsiya rivojlangan bir paytda bolalarni kitob o'qishga va ularni taxlil qilishga bo'lgan layoqatlari juda past. Sababi ularning bo'sh vaqtlari telefondagi turli xil ongni zaxarlovchi o'yinlarni o'ynash bilan o'tmoqda. Buni oldini olish maqsadida ota-onalardan va bolalarning tarbiyachi ustozlaridan talab etiladigan eng muhim narsa ularni kitob o'qishga targ'ib qilish bilan bir qatorda o'zlari ham ularga na'muna bo'la olishlaridir. Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limidagi bolalarni pedagog o'qituvchilar eng asosiy o'rinda Badiiy asarlarni o'qish, o'rganish hayotga tatbiq qilish maqsadida uni sahnalashtirish kabi bir qator chora tadbirlarni amalga oshirishi lozim. Asarning g'oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va xususiyatlarini chuqur o'rganish ifodali o'qishning asosiy omillaridan biri ekanligi. O'quvchilar badiiy asarlarning yoki ulardan olingan parchalarni to'g'ri ifodali o'qisalar, ularning ko'z oldilarida alohida yangi manzaralar, hodisa va voqealar namoyon bo'ladi. Buning uchun ifodali o'qish darslarini to'g'ri tashkil qilish o'qituvchi zimmasiga tushadi. Shuning uchun ham, o'qituvchidan adabiy asarning badiiy xususiyatini aks ettirib emotsional zavq beradigan qilib o'qish talab qilinadi. Avvalo Badiiy asarlarni ifodali, o'quvchi ongiga singdira oladigan tarzda ta'sirli qilib o'qib bergach bolalarni ushbu asardagi voqea hodisalarga bo'lgan fikr va mulohazalarini eshtib, og'zaki tarzda chiroyli tushintirib berishlari kerak. Asar tushuntirilganda so'ng bolalarni ushbu asarda keltirilgan qahramonlar roliga kirgizib uni sahnalashtirishi kerak. Qahramonlarni o'quvchilarga bo'lib berayotgan vaqtda ularning iste'dod va harakter hususiyatlarini ham inobatga olish muhim hisoblanadi. Kirishimli va iste'dodli o'quvchilarni asarning bosh qahramoni sifatida tanlab olishsa uni ishonarli tarzda gavdalantirishi mumkin. Shu bilan birga harakter jihatdan tortinchoq, uyatchang va kirishimlilik darajasi sustroq bo'lgan o'quvchilarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur ularga ham qisqa rollarni berib qadama-qadam ularni ham o'stirib borishni ham unutmashlik zarur.

**XULOSA:**

Quyida keltirilgan maqoladan xulosa qilib shuni aytmoqchimanki Badiiy asarlarni hayotimizdagi o'рни beqiyos, keltiradigan foydasi esa yetarli darajada. Yosh avlodni ilm olishga targ'ib qilishda asosiy o'rinni kitobxonlik ya'ni Badiiy asarlar egallaydi. Bolalarimiz uchun eng yaxshi sovg'a bu kitob, ularni qanchalik ko'p kitobga targ'ib qilsak ulardan eng yaxshi mutafakkirlar ham yetishib chiqadi. Bolalarning bo'sh vaqtlarida Teatrlarga ham olib borishligimiz kerak ularning ongini sahna asarlari orqali yoritib vaqtlarini mazmunli o'tkazishga yordam bergan bo'lamiz. Har bir xalqning milliy an'ana va urf odatlari sahna asarlari va liboslari orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ular O'zbek badiiy asarlarini sahnalari orqali o'zligini anglab yetadi. Milliy urf-odatlarini o'rganadi. Jahon Badiiy asarlari orqali esa Jahon xalqlarining milliy an'ana va qadriyatlarini ham o'zlashtirib olishadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiyotshunoslik lug'ati D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva, Toshkent «Akademnashr»2013[1]
2. Dilmurod Quronov „Adabiyotshunoslikka kirish“
3. Tojkarimova Moxira. (2023). BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA ELEKTRON RESURSLARDAN FOYDALANISH. International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 1(1), 20–25. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/5>
4. DRAMA VA UNING TURLARI. (2024). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 76-81. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/65>
5. Tojkarimova, M. A. qizi. (2023). BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(16),824–828.Retrievedfrom <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5106>
6. Tojkarimova Moxira Anvarjon qizi, & Valiyeva Nargiza. (2023). TARBIYA JARAYONIDA OILA MAHALLA HAMDA TA'LIM MUASSASALARINING O'ZARO HAMKORLIGI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 637–639. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.665>



7. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 661-663.
8. Jumanova, S. I., & Asqarova, D. (2023). MAKTABGACHA TA'LIMDA TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI O 'STIRISHDA STEM TA'LIMINING O 'RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 377-381.
9. Jumanova, S. (2022). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KUZ MOTIVI. Scientific journal of the Fergana State University, (2), 29-29.
10. Maxliyoxon, O., & Sohibaxon, V. (2024). BADIY O 'QISHNING BOLALARNING FIKRLASHIGA TA'SIRI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 10-14
11. Maxliyoxon, O., & Layloxon, M. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA TEATR-SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING SHAKLLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 15-20.
12. Maxliyoxon, O., & Nilufar, Y. L. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM SINFLARIDA YOD O 'QISH VA BADIY O 'QISHNING MUHIMLIGI. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(1), 46-51.
13. Maxliyoxon, O., & Sarvinoz, M. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIM O 'QUVCHILARINI OMAVIY TADBIRLARGA TAYYORLASH USULLARI. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 41-44.
14. Axadjon o'g'li, A. A., & Murotovich, M. F. (2023). RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOT SIYOSATI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 294-298.
15. GM Abdullaev Akhrorjon. (2023). O'zbekistonda islom moliyasini joriy etishdagi imkoniyat va istiqbollari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1 ...
16. HA Abdullaev Akhrorjon. (2023). Islom moliyasidan keng foydalanish asoslari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1 ...
17. UI Abdullaev Akhrorjon, Akhmadjonov O. (2023). Islom moliyasida shartnoma turlari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI